

O‘ZBEKISTONDA SUN‘IY INTELLEKTNING RIVOJLANISHI HAMDA MILLIY QONUNCHILIK BILAN TARTIBGA SOLISH AHAMIYATI

Burxonjonov Anvarjon

Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi

Аннотация: Mazkur maqolada O‘zbekistonda sun‘iy intellekt texnologiyalarining rivojlanish jarayonlari, davlat siyosati darajasida amalga oshirilayotgan islohotlar hamda sohani milliy qonunchilik asosida tartibga solish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, sun‘iy intellektning iqtisodiyot, davlat boshqaruvi va sud tizimiga joriy etilishi, 2030-yilgacha mo‘ljallangan strategik maqsadlar hamda Hukumatning sun‘iy intellektga tayyorlik indeksidagi o‘zgarishlar yoritilgan. Maqolada sun‘iy intellektidan foydalanish bilan bog‘liq kiberxavfsizlik, shaxsga doir ma‘lumotlarni himoya qilish va soxta kontent tarqatish kabi muammolar ham ko‘rib chiqilib, xorijiy tajriba asosida milliy qonunchilikni takomillashtirish zarurati asoslab berilgan.

Ключевые слова: sun‘iy intellekt, raqamli transformatsiya, davlat siyosati, normativ-huquqiy baza, maxsus huquqiy rejim, IT-park, sud tizimi, davlat boshqaruvi, kiberxavfsizlik, kiberjinoyat, shaxsga doir ma‘lumotlar, deepfake, axborot xavfsizligi, raqamli iqtisodiyot, innovatsion texnologiyalar, sun‘iy intellektni tartibga solish, xalqaro tajriba, Government AI Readiness Index.

Kirish

Bugungi kunda sun‘iy intellekt texnologiyalari global miqyosda keng yoyilib, iqtisodiyotdan tortib, ta‘lim, tibbiyot, qishloq xo‘jaligi va boshqaruv tizimigacha chuqur kirib bormoqda. Sun‘iy intellekt (SI)-o‘ylay oladigan, o‘rganadigan va qaror qabul qiladigan dastur sifatida bank-moliya sohasida firibgarliklarni oldini olish, shaxslarning to‘lov qobilyatini baholash, soliq va bojxona sohasida yashirin iqtisodiyot ulishini kamaytirish, shubali bojxona operatsiyalarini aniqlash, sog‘liqni saqlash sohasida kasalliklarni oldini olish, tashxislash va bemorlarga oid ma‘lumotlarni umumlashtirish, shuningdek qishloq xo‘jaligi sohasida hosildorlikni prognozlashga yordam beradi. 2030-yilga borib, sun‘iy intellekt global iqtisodiyotga 15,7 trillion dollargacha hissa qo‘shishi mumkin[1]. Buning natijasi o‘laroq SI biznes modellarini va ishlarning bajarilish usullarini o‘zgartiradi hamda bu jarayonda butun boshli sohalarni qayta yaratadi, barcha sohalar avtomatlashtirgan holda inson omili kamayib boradi.

O‘zbekistonda sun‘iy intellekt texnologiyalarining rivojlanish tendensiyalari

Mamlakatimiz rahbari tomonidan sun‘iy intellektni rivojlantirishga davlat siyosati darajasida e‘tibor qaratilib, bu jarayon davlatning iqtisodiy, siyosiy rivojlanish yo‘nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida 2025-yil 21-oktabr kuni davlat boshqaruvi, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarda sun‘iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish masalalari yuzasidan videoselektor yig‘ilishida – “Bugun insoniyat yangi sivilizatsiya bosqichiga – sun‘iy intellekt



Kielce 2026

davriga dadil qadam qo‘ymoqda. Qaysi soha bo‘lmasin, kim bu jarayonda qattiq izlanib, aniq natija qilsa, bir qadam oldinda yursa, marra shuniki bo‘ladi”, – dedi davlatimiz rahbari[2].

O‘zbekistonda sun‘iy intellekt dasturlarini rivojlantirishga qaratilgan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-noyabrdagi 717-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Sun‘iy intellekt texnologiyalarini qo‘llab-quvvatlash uchun maxsus rejim tashkil etish va uning faoliyatini yo‘lga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan, mamlakatimizda sun‘iy intellekt texnologiyalariga asoslangan tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish, dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish va xizmatlar ko‘rsatish bilan bog‘liq faoliyat yurituvchi yuridik shaxslar hamda ilmiy tashkilotlar uchun zarur tashkiliy-huquqiy sharoit yaratish, dasturiy mahsulotlarni tajribadan o‘tkazish va amaliyotga joriy qilish jarayonida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlarda yengillik yaratishga qaratilgan maxsus huquqiy rejim tashkil etildi. Maxsus rejim ishtirokchilariga ya‘ni belgilangan tartibda maxsus rejim ishtirokchilari sifatida ro‘yxatdan o‘tkazilgan, sun‘iy intellekt texnologiyalariga asoslangan dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqaruchi, xizmatlar ko‘rsatuvchi tashkilotlar hamda tadbirkorlik subyektlariga quyidagi imtiyoz va preferensiyalar belgilanadi:

o‘z xodimlari malakasini oshirish va qayta tayyorlashga sarflangan xarajatlari davlat tomonidan kompensatsiya qilinadi;

tajriba-sinov loyihalarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ma‘lumot hamda hujjatlarni (davlat sirlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sir belgilari mavjud bo‘lgan ma‘lumotlar bundan mustasno), shuningdek, shaxsga doir egasizlashtirilgan ma‘lumotlarni vazirlik, idora va tashkilotlardan olish huquqi beriladi;

ruxsat etish xususiyatiga ega tegishli hujjatlarni olish uchun talab etiladigan hujjatlar ro‘yxati tegishli vakolatli davlat organi tomonidan qisqartiriladi;

ruxsat etish xususiyatiga ega tegishli hujjatlarni olish uchun belgilangan to‘lov miqdorlari 2 baravarga kamaytiriladi.

Yuqoridagilardan tashqari, Maxsus rejim ishtirokchilariga IT-park rezidentlariga berilgan imtiyoz va preferensiyalar tatbiq etilishi mumkin ya‘ni 2028-yil 1-yanvargacha barcha turdagi soliqlar va davlat maqsadli jamg‘armalariga majburiy ajratmalarni, shuningdek ijtimoiy soliqni to‘lashdan, belgilangan tartibda tasdiqlanadigan ro‘yxatlar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan, o‘z ehtiyojlari uchun olib kirilayotgan uskunalar, butlovchi qismlar, detallar, uzellar, texnologik hujjatlar, dasturiy ta‘minot vositalari uchun bojxona to‘lovlari to‘lashdan (bojxona yig‘imlaridan tashqari) ozod etiladi[3].

Prezidentimizning 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son qarori bilan “Sun‘iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi” tasdiqlangan. Strategiyaga asosan, sun‘iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish bo‘yicha erishish lozim bo‘lgan quyidagi maqsadli ko‘rsatkichlar qo‘yilgan:

- sun‘iy intellekt asosida yaratilgan dasturiy mahsulotlar va ko‘rsatiladigan xizmatlar hajmini 1,5 milliard AQSH dollariga yetkazish;
- Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida sun‘iy intellekt asosida ko‘rsatilayotgan xizmatlar ulushini 10 foizga yetkazish;
- sun‘iy intellekt yo‘nalishida faoliyat yurituvchi ilmiy laboratoriyalar sonini 10 taga yetkazish hamda yuqori quvvatli hisoblash serverlarini ishga tushirish; Hukumatning sun‘iy intellektga tayyorlik indeksida (Government AI Readiness Index) O‘zbekiston Respublikasining birinchi 50ta o‘rindagi davlatlar qatoriga kirishiga erishish[4].



Kielce 2026

Shuningdek Prezidentimizning 2025-yil 22-oktabrdagi PF-189-sonli “Sun’iy intellekt texnologiyalarini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilingan. Farmonga ko‘ra, sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasiga muvofiq mamlakatimizda zamonaviy texnologiyalarning jadal rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, sun’iy intellektni keng joriy qilish uchun yanada qulay sharoitlar yaratish, ushbu yo‘nalishga qo‘shimcha investitsiyalarni jalb qilish hamda malakali mutaxassislarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish maqsad qilingan. Jumladan, 2026-yil 1-yanvardan boshlab yoshlarning sun’iy intellekt texnologiyalariga qiziqishini yanada oshirish va rag‘batlantirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining sovrini uchun “Sun’iy intellekt yo‘nalishida eng yaxshi startup” (President AI Award) tanlovi o‘tkazilishi, davlat organlari va xo‘jalik jamiyatlarida hamda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining raqamli transformatsiya holatini baholashda sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish ko‘rsatkichlari inobatga olinishi, reyting natijasiga asosan 2026-yil 1-martdan boshlab yiliga ikki marotaba eng yaxshi sun’iy intellekt loyihalarini joriy etgan vazirlik va idoralar o‘rtasida “Sun’iy intellekt bo‘yicha eng yaxshi loyiha” tanlovi o‘tkazilishi belgilandi[5].

Sun’iy intellekt texnologiyalari O‘zbekiston sud tizimiga ham integratsiya qilib borilmoqda. Prezidentimizning 2025-yil 21-avgustdagi PF-140-sonli “Sudlar faoliyatiga sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish hamda sud tizimining moddiy-texnik ta‘minotini yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni bilan respublikadagi barcha sudlarda bosqichma-bosqich sun’iy intellekt yordamida sud xarajatlarini hisoblash hamda sud majlisi bayonnomalarini real vaqt rejimida matn shaklida tayyorlash imkoniyati yaratiladi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasiga asosan 2030-yilga qadar qonun ijodkorligi jarayonlarida raqamlashtirish va sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash darajasini 70 foizga yetkazish, sud va boshqa organlarning hujjatlari ijrosini ta‘minlash jarayoniga sun’iy intellektni joriy etish orqali ijro ishlarining 30 foizini majburlov choralarini qo‘llamagan holda ijrosini ta‘minlash kabi maqsadlar belgilangan.

Davlatlarning sun’iy intellekt texnologiyalarini ishlab chiqish, joriy etish va ulardan samarali foydalanishga tayyorlik darajasini baholaydigan Hukumatning sun’iy intellektga tayyorlik indeksida (Government AI Readiness Index) O‘zbekiston 2023-yilda 87-o‘rinni, 2025-yilga kelib esa 62-o‘rinni qayd etgan[6]. Ikki yil ichida mamlakatimizning 25 pog‘onaga yuqorilagani sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirishga qaratilgan chuqur islohotlar samara berayotganligini ko‘rsatadi.

Sun’iy intellekt texnologiyalarining milliy qonunchilik bilan tartibga solishning ahamiyati

Sun’iy intellekt texnologiyalarining tez suratda rivojlanib borishi, milliy qonunchiligimizni ham shunga monand takomillashtirishimizni talab qiladi. SI texnologiyalaridan davlat organlarining faoliyatini raqamlashtirishda va insonlarning kundalik hayotida keng foydalanish, shaxsga doir ma‘lumotlarni xavfsizligini ta‘minlash, diskriminatsiya, siyosiy manipulyatsiyalar hamda kiberjinoyatlarning ortishini oldini olishni ham talab qiladi. Deputat Shahnoza Xolmuhammedovaga ko‘ra, “butun dunyoda, xususan, O‘zbekistonda sun’iy intellekt inson huquqlari va shaxsiy ma‘lumotlar xavfsizligi uchun tahdidlarni yuzaga keltiryapti”. “Xususan, o‘tgan yili SIDan foydalanib, taniqli shaxslarning audio, foto va videolarini soxtalashtirish 50 barobarga oshgan. O‘zbekistonda 2023-yilda internet tarmoqlarida 1129ta, 2024-yilda esa 3553ta SI yordamida ishlov berilgan noqonuniy materiallar tarqatilgani aniqlangan. Bunda aholining ishonchiga kirish maqsadida o‘zga shaxslarning qiyofasi va ovozi foydalanilgan”[7]. Bundan tashqari, 2021–2025-yillarda O‘zbekistonda kiberjinoyatlar soni 11 baravarga ya‘ni 4865 tadan 62 440 tagacha ortgan. 2025-yilda kiberjinoyatlar oqibatida



Kielce 2026

O‘zbekistonliklarning salkam 1,9 trln so‘m mablag‘lari o‘g‘irlangan[8]. Kiberjinoyatlarda sun‘iy intellekt orqali inson yuzini, ovozini o‘xshatish orqali jinoyat sexemalari yanada takomillashmoqda.

Bugungi kunda ba‘zi davlatlar sun‘iy intellektning sog‘lom rivojlanishini, shaxsga doir ma‘lumotlar himoyasini ta‘minlash uchun sun‘iy intellekt texnologiyalarini tartibga soladigan maxsus qonunlarini ishlab chiqmoqda. Xususan, Yevropa Ittifoqi hamda Janubiy Koreya birinchilardan bo‘lib o‘zining maxsus normalarini (AI act) ishlab chiqishgan. Xususan Janubiy Koreyaning sun‘iy intellekt bo‘yicha qonunining (AI Basic Act) 31-moddasiga asosan, agar sun‘iy intellekt tizimlari haqiqiy kontentdan ajratish qiyin bo‘lgan virtual audio, tasvir yoki videoni yaratsa, ushbu sun‘iy intellekt maxsulotlarini taqdim etayotgan kompaniyalar (subyektlar) bunday kontent sun‘iy intellekt tizimi tomonidan yaratilganini foydalanuvchilarga aniq anglash imkonini beradigan tarzda xabardor qilishi yoki ko‘rsatishi shart[9]. Bu haqiqiy kontentdan farq qiladigan sun‘iy intellekt kontentlarini markirovka qilinishi shartligini nazarda tutadi.

Xulosa

O‘zbekistonda sun‘iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylanib, bu borada mustahkam strategik va normativ-huquqiy baza shakllantirilmoqda. 2030-yilgacha mo‘ljallangan rivojlantirish strategiyasi, maxsus huquqiy rejimlarning joriy etilishi, sud-huquq tizimi va davlat boshqaruvida sun‘iy intellektdan foydalanish bo‘yicha belgilangan vazifalar mamlakatimizning raqamli transformatsiya yo‘lidagi qat‘iy qadamlaridan dalolat beradi.

Shu bilan birga, sun‘iy intellekt texnologiyalarining jadal rivoji yangi huquqiy va ijtimoiy xavflarni ham yuzaga keltirmoqda. Xususan, shaxsga doir ma‘lumotlar himoyasi, kiberxavfsizlik, soxta (deepfake) kontentlar tarqalishi, diskriminatsiya va axborot manipulyatsiyasi kabi tahdidlar milliy qonunchilikni yanada takomillashtirishni talab etadi.

Shu bois, sun‘iy intellektni rivojlantirish bilan bir qatorda, uni aniq va samarali huquqiy mexanizmlar orqali tartibga solish muhim ahamiyat kasb etadi. Maxsus qonun qabul qilish, sun‘iy intellekt mahsulotlarini markirovka qilish, javobgarlik choralari belgilash hamda etik standartlarni ishlab chiqish kelgusida ushbu sohaning barqaror va xavfsiz rivojlanishini ta‘minlaydi.

Demak, sun‘iy intellektni qo‘llash va uni milliy qonunchilik bilan uyg‘unlashtirish O‘zbekistonning raqamli taraqqiyoti, iqtisodiy raqobatbardoshligi va fuqarolar huquqlarini ishonchli himoya qilishning muhim omili hisoblanadi.

Литература

1. <https://www.pwc.com/us/en/tech-effect/ai-analytics/scaling-ai-capabilities-with-generative-investment.html>;
2. <https://president.uz/oz/lists/view/8582>;
3. <https://lex.uz/docs/-5746496#-5749436>
4. <https://lex.uz/docs/-7158604>;
5. <https://lex.uz/uz/docs/-7789403>;
6. <https://oxfordinsights.com/ai-readiness/government-ai-readiness-index-2025>;
7. <https://kun.uz/news/2025/04/15/ozbekistonda-suniy-intellekt-haqida-qonun-qabul-qilinmoqda-unda-nima-yozilgan>;
8. <https://www.gazeta.uz/oz/2025/12/24/cybercrime/>;
9. <https://aibasicact.kr/explorer/#chapter-4-no-section-article-31>.

